



MIRIAM MERADNING ILM – FANGA QO‘SHGAN HISSASI

Sharofova Diyora Shavkat qizi

TDSHU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi jadal rivojlangan davrda ayollar o‘zlarining har qanday sohada ilg‘or va yetuk bo‘la olishliklarini isbotlashdi. Har bir sohaning, san‘atdan tortib siyosatgacha o‘zlarining mashhur ayol vakillariga ega. Ilm – fan ham bundan mustasno emas. Ilm - fan sohasida allaqachonlar ayollar yuksak pog‘onalarga erishgan hamda ilg‘or natijalar ko‘rsatishgan. Xususan, Miriam Merad ham o‘z davrining tibbiyot sohasining olima vakillaridan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: kashfiyot, gemetologiya, onkologiya, tadqiqot.

Abstract: In today's rapidly developed era, women have proven that they can be advanced and mature in any field. Every field, from art to politics, has its famous female representatives. Science is no exception. Women have already reached high levels in the field of science and have shown advanced results. In particular, Miriam Merad is one of the scientists of her time in the field of medicine.

Key words: discovery, hematology, oncology, research.

Абстракт: В сегодняшнюю стремительно развивающуюся эпоху женщины доказали, что они могут быть продвинутыми и зрелыми в любой области. В каждой сфере, от искусства до политики, есть свои известные представительницы женского пола. Наука не является исключением. Женщины уже достигли высокого уровня в области науки и показали передовые результаты. В частности, Мириам Мерад – одна из учёных своего времени в области медицины.

Ключевые слова: открытие, гематология, онкология, исследование.



Miriam Merad 1969 – yilda tavallud topgan. Dastlabki ta'limni Jazoirda oldi, Jazoir universitetida tibbiyot fakultetida doktorlik darajasini qo'lgacha, Parijda Didro universitetida gemetologiya va onkologiya bo'yicha tahsil oldi. U yerda magistrlik darajasiga erishgach Stenford shahirga bordi va Edger Engelman laboratoriyasida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Merad Parijdagi Sen-Lui kasalxonasi va Gustav Russi institutida gematologiya / onkologiya va suyak iligi transplantatsiyasi bo'yicha klinik ta'limi dasturi bo'yicha immunoterapiya sohasini tadqiq qildi. Stenford shahrida laboratoriyada makrofaglar va dendritik hujayralarni tadqiq qildi.¹

U birinchi marta 2004-yilda ISMMSga ishga qabul qilingan va 2007-yilda Tenure bilan dotsent va 2010-yilda to'liq professor unvoniga ko'tarilgan. U 2014-yilda saraton immunologiyasi bo'yicha ta'minlangan kafedraga faoliyat yurtigan. 2016-yilda Merad 2007-yilda Lloyd Mayer va Serjio A. Lira tomonidan asos solingan ISMMS qoshidagi Immunologiya instituti direktori etib tayinlandi. Merad rahbarligida PrISM boshqa ISMMS institutlari, shifokorlar va olimlar o'rtasidagi yuqori samarali hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi hamda fundamental, tarjima va klinik tadqiqot tashabbuslari o'rtasidagi sinergiyani kuchaytiruvchi ko'plab dasturlar va markazlarni ishga tushirdi va ular bilan hamkorlikka erishdi.² 2023- yilda Sinay Ikan tog'ida Merad asosiy biologiya va immunitet tizimining inson salomatligiga chuqur ta'sirini har tomonlama rivojlantirishni maqsad qilgan yangi tadqiqot bo'limi bo'lgan Immunologiya va immunoterapiya (DII) kafedrasining asos soldi.³

Merad hozirgi kunga qadar bir necha yuzlab nashrlar, boblar, maqolalar tadqiqotlar muallifi hamda bir necha tashkilotlar faxrli a'zosi, xususan: Amerika Qo'shma Shtatlari Milliy Tibbiyot Akademiyasi, Saraton Immuno-Onkologiya Akademiyasining Immunoterapiya Jamiyati, Xalqaro immunologik jamiyatlar ittifoqi prezidenti, Amerika Klinik Tadqiqotlar Jamiyati, Amerika Qo'shma Shtatlari Milliy Fanlar Akademiyasi.

¹ https://www.nasonline.org/membership/membedirectory/?_member_directory_sort=last_name_asc

² <https://recognition.webofscience.com/awards/highly-cited/2020/>

³ https://www.nasonline.org/membership/membedirectory/?_member_directory_sort=last_name_asc



U 2018 - yilgi asosiy immunologiya bo‘ yicha taniqli tadqiqot uchun Uilyam B. Koli mukofotining asosiy sohibi va 2020 - yilda Nyu-Yorkdagi Karnegi korporatsiyasi tomonidan berilgan Buyuk Immigrantlar mukofoti sovrindori.⁴

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. <https://recognition.webofscience.com/awards/highly-cited/2020/>
2. https://www.nasonline.org/membership/membdirectory/?_member_directory_sort=last_name_asc

⁴ <https://recognition.webofscience.com/awards/highly-cited/2020/>